



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI ABU RAYHON BERUNIY
NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

“QURILISH VA ARXITEKTURA SOHASIDAGI INNOVATSION
G'OYALAR, INTEGRATSIYA VA TEJAMKORLIK”

УРГЕНЧСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ АБУ РАЙХАНА БЕРУНИ

РЕСПУБЛИКАНСКАЯ
НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ
«ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ, ИНТЕГРАЦИЯ
И ЭКОНОМИКА В ОБЛАСТИ
СТРОИТЕЛЬСТВА И АРХИТЕКТУРЫ»

IN THE NAME OF
ABU RAYHAN BERUNI
URGANCH STATE UNIVERSITY

“INNOVATIVE IDEAS, INTEGRATION,
AND ECONOMY IN THE FIELD OF
CONSTRUCTION AND
ARCHITECTURE”
SCIENTIFIC AND PRACTICAL
REPUBLICAN CONFERENCE

MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA
ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA
1-TO'PLAMI



TASHKILIY QO‘MITASI:

RAIS:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti rektori v.v.b.,
professor - **S.U. Xodjaniyazov**

HAMRAISLAR:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti ilmiy ishlar va
innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, PhD, dotsent - **Z.Sh. Ibragimov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti xalqaro hamkorlik
bo‘yicha prorektori, f-m.f.d., professor - **G‘.U. Urazboyev**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, Texnika fakulteti
dekani, f-m.f.n., dotsent - **M.Q. Qurbanov**

Toshkent davlat transport universiteti, Avtomobil yo‘llari muhandisligi
fakulteti dekani, t.f.d., professor - **A.X. Urokov**

Xorazm viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi, Urganch
tuman bosh arxitektori - **R.B. Matmurotov**

ILMIY KOTIB:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, “Qurilish”
kafedrası dotsenti, PhD - **A.A. Qutlijev**

TASHKILIY QO‘MITA A‘ZOLARI:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti yoshlar masalalari
va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha prorektori, PhD, dotsent - **D.I. Ibadullayev**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti moliya-iqtisod
ishlari bo‘yicha prorektori - **A. Atajanov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Qurilish”
kafedrası mudiri, t.f.n., dots. – **Q.K. Axmedov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Arxitektura”
kafedrası mudiri **R. Palvanov**

t.f.d., prof., R. Raximov, t.f.d., prof., B.Raxmonov, t.f.n., dots., K.Kuryozov, i.f.n., dots., N. Sattorov, a.f.n., dots., M. Setmamatov, a.f.f.d., dots., S. Atoshev, a.f.f.d., Sh. Abdullayeva, dots., Sh. Xo‘janiyozov, t.f.f.d., S. Sultanova, A. Atamuratov, A. Seyitniyozova, N. Kariyeva, S. Rajabov, S. Yusuf, A. Sobirov, X. Madirimov, X. Radjabov, I. Bekturdiyev, B. Radjapov, A. Xodjayazov, A. Matkarimov, M. Djumanazarova, R. Nafasov, Sh. Navruzov, Y. Tadjiyev, R. Sovutov, A. Samandarov, L. Yusupova, Sh. Masharipov, H. Bekchanov, D. Shalikaeva, S. Nurmuhammedov, I. Matnazarov, Q. Soburov, K. Yuldashev, A. Bobojonov, Sh. Nurimetov, H. Masharipova, S. Qurambayev, M. Ashurova, A. Shomurotov.

ILMIY-TEXNIK ANJUMAN DASTURIY QO‘MITASI:

Rais: “ARXITEKTURA, QURILISH, DIZAYN” ilmiy-amaliy jurnalining bosh muharriri, i.f.d., prof. **Nurimbetov Ravshan Ibragimovich**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida 2025 yil 15-16-sentabr kunlari “Qurilish va arxitektura sohasidagi innovatsion g‘oyalar, integratsiya va tejamkorlik” mavzusidagi respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik konferensiya materiallari kiritilgan.

To‘plamga kiritilgan maqolalar mazmuni, ilmiy salohiyati va keltirilgan dalillarning haqqoniyligi uchun mualliflar mas’uldirlar.

SHAHARLAR RIVOJIDA YASHIL YO‘LAKLARNING O‘RNI: YEVROPA VA OSIYO TAJRIBALARI TAHLILI

arx.f.n., dotsent Reyimbaev Shuxrat .Sadullayevich..

TAQU. ORCID: 0009-0006-2069-0995

E-mail: info@taqu.edu.uz; shuh_1977@mail.ru

Aimbetov Islam Sapari'mbet uli' E-mail: ayimbetov97@mail.ru

Toshkent arxitektura qurilish universiteti

Tayanch doktoranti. ORCID: 0009-0006-2069-0995

Annotatsiya

Ushbu maqolada urbanizatsiya sharoitida yashil yo‘laklarning ekologik, ijtimoiy va estetik ahamiyati tahlil etilgan. Yevropa (Germaniya, Fransiya) va Osiyo (Janubiy Koreya, Xitoy) davlatlari tajribasi asosida yashil infratuzilmaning samarali modeli ko‘rib chiqilgan. O‘zbekiston shaharlarining, ayniqsa qurg‘oqchil hududlarining ekologik muvozanatini tiklashda yashil yo‘laklar tizimining zaruriyati asoslab berilgan. “Yashil makon” loyihasi va boshqa davlat dasturlari doirasida yashil yo‘laklarni shaharsozlik rejasiga integratsiyalash zarurligi yoritilgan.

Аннотация

В данной статье анализируется экологическая, социальная и эстетическая значимость зелёных коридоров в условиях урбанизации. На примере стран Европы (Германия, Франция) и Азии (Южная Корея, Китай) рассмотрены эффективные модели зелёной инфраструктуры. Обоснована необходимость внедрения системы зелёных коридоров для восстановления экологического баланса в городах Узбекистана, особенно в засушливых регионах. Отмечена актуальность интеграции зелёных коридоров в градостроительные планы в рамках проекта «Зелёное пространство» и других национальных программ.

Annotation

This article analyzes the ecological, social, and aesthetic significance of green corridors in the context of urbanization. Based on the experiences of European (Germany, France) and Asian (South Korea, China) countries, effective green infrastructure models are examined. The necessity of implementing green corridor systems in Uzbekistan, especially in arid regions, is justified to restore ecological balance. The article highlights the importance of integrating green corridors into urban planning within the framework of the “Green Space” national project and other state initiatives.

Kalit soʻzlar

Yashil yoʻlaklar, urbanizatsiya, ekologik infratuzilma, shahar rejalashtirish, iqlimga moslashuv, Oʻzbekiston, Yevropa tajribasi, Osiyo tajribasi

Ключевые слова

Зелёные коридоры, урбанизация, экологическая инфраструктура, градостроительство, адаптация к климату, Узбекистан, европейский опыт, азиатский опыт

Keywords

Green corridors, urbanization, ecological infrastructure, urban planning, climate adaptation, Uzbekistan, European experience, Asian experience

Kirish

Bugungi kunda urbanizatsiya jarayonlari butun dunyo miqyosida keskin suratlarda bilan rivojlanmoqda. Aholi sonining koʻpayishi, infratuzilmaviy bosim va ekologik muammolar fonida shahar hududlarining barqaror rivojlanishini taʼminlash dolzarb vazifaga aylanmoqda. Shu jihatdan, yashil yoʻlaklar (green corridors) konsepsiyasi shaharlar ekologik tizimini saqlash, iqlim oʻzgarishiga moslashish, aholining hayot sifatini yaxshilashda muhim vosita sifatida eʼtirof etilmoqda [1].

Ushbu maqolada Yevropa va Osiyo mamlakatlari tajribasi asosida shaharlar rivojida yashil yoʻlaklarning tutgan oʻrni, ularni rejalashtirish va integratsiya qilish mexanizmlari, shuningdek, ushbu modelni Oʻzbekiston shaharlari, ayniqsa iqlimi quruq hududlarga moslashtirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi - shahar ekologik barqarorligini taʼminlashda yashil yoʻlaklar tizimining samaradorligini aniqlash va xalqaro tajribalar asosida mahalliy model ishlab chiqishdan iborat.


Oʻzbekiston shaharlarida soʻnggi yillarda urbanizatsiya jarayonlari jadallashib, aholi zichligi ortib bormoqda. Aholining sogʻlom yashash muhitiga boʻlgan ehtiyoji, ekologik muvozanatni taʼminlash, shahar mikroiklimini yumshatish va havoning sifatini yaxshilash boʻyicha dolzarb masalalar yuzaga chiqmoqda. Ayniqsa, iqlimi quruq va yarim choʻl boʻlgan hududlarda, xususan, Qoraqalpogʻiston Respublikasi,

Buxoro, Navoiy kabi joylarda yashil yo‘laklar tizimi nafaqat estetik va rekreatsion ahamiyatga ega, balki ekologik barqarorlikni saqlashda muhim rol o‘ynaydi [2].

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.05.2025 yildagi “yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida hamda o‘rmonlarni boshqarish tizimida islohotlarni izchil davom ettirish, yashil hududlarni kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida PF-90-son Farmoni, yashil makonlar salmog‘ini oshirish bo‘yicha qabul qilingan qarorlari mamlakat miqyosida yashil infrastrukturaning ahamiyatini yanada kuchaytiradi. “Yashil makon” umumxalq loyihasi doirasida ko‘chat ekish, ekologik yo‘laklar tashkil etish, landshaftni obodonlashtirish ishlari yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, bu yashil yo‘laklar tizimini zamonaviy shaharsozlikning ajralmas qismiga aylantirish zarurligini ko‘rsatmoqda [3].

Bugungi kunda butun dunyoda shaharsozlikda yashil yo‘laklar tizimi bugungi urbanistik yondashuvlarning ajralmas elementi sifatida e‘tirof etilmoqda. Bu tizim nafaqat estetik muhitni yaratmasdan ekologik uzluksizlikni ta‘minlab, shahar atmosferasini tozalash, bioxilma-xillikni saqlash, aholi salomatligiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatish kabi ko‘plab funksiyalarni bajaradi [4].

Yevropa davlatlarining shaharsozlik tajribasida yashil yo‘laklar bir necha yo‘nalishda amalga oshirilgan masalan: ekologik, rekreatsion, transport va madaniy-ma‘naviy. Germaniya, Niderlandiya, Daniya va Shvetsiya singari mamlakatlarda yashil infratuzilma konsepsiyasi shahar rejalashtirishning markaziy tamoyillaridan biri hisoblanadi. Xususan, Berlin shahrida “Biotope Network” konsepsiyasi asosida shahar ichida turli ekologik obyektlarni birlashtiruvchi yashil yo‘llar tizimi yaratilgan [5].



Biotop Tarmog'idagi Ijtimoiy-Ekologik O'zaro Ta'sirlar (Konseptual model)

<https://www.nature.scot/doc/ecological-networks-protected-areas-review-ecological-networks-think-piece>

Fransiyaning Parij shahri misolida esa “La Coulée verte René-Dumont” deb nomlangan yashil yo‘lak sobiq temiryo‘l yo‘nalishi bo‘ylab rekonstruksiya qilinib, ko‘kalamzor yo‘lakka aylantirilgan [6].

Osiyo mamlakatlari orasida Janubiy Koreya va Xitoy eng ilg‘or tajribalarga ega. Seul shahridagi “Cheonggyecheon” loyihasi buning yaqqol misolidir. Seul shahri hozirda muhim paradigmagacha o‘zgarish kiritmoqda - avval avtokentrik, rivojlanishga yo‘naltirilgan shahar landshaftidan odamlarning hayot sifati va faol ekotizimlarning ahamiyatini qadrllovchi modelga o‘tmoqda. Yuqori ko‘priknı buzish va tarixiy Cheonggyecheon daryosining bir qismini ochib berish orqali amalga oshirilgan Cheonggyecheon qayta tiklash loyihasi shaharning markazida 3,6 mil uzunlikdagi yo‘lak bo‘ylab ekologik va dam olish imkoniyatlarini yaratdi. Ushbu loyiha katalizator vazifasini bajardi va so‘nggi o‘n yilliklarda inqiroz holatida bo‘lgan Seulning bir hududida iqtisodiy o‘shish va rivojlanishni rag‘batlantirdi.



2002-yilda Seul Taraqqiyot Institutining Tadqiqot Markazi direktori tomonidan Seul Metropolitan Hukumatiga taqdim etilgan kontseptual maydon rejasi

<https://www.landscapeperformance.org/case-study-briefs/cheonggyecheon-stream-restoration-project>

Xitoyning Chengdu, Shenzhen va Pekin kabi yirik shaharlarida “ekologik halqalar”, ya’ni shaharning ichki va tashqi perimetrida joylashgan uzluksiz yashil yo‘llar tizimi yaratilgan bo‘lib, ular transport infratuzilmasi bilan integratsiyalashgan. Bu esa fuqarolarning avtomobillardan voz kechib, piyoda yoki ekologik transportdan foydalanishini rag‘batlantiradi.

Endilikda O‘zbekiston shaharlarida ham ushbu tajribalarni o‘rganish va amaliyotga joriy qilish zarurati dolzarb bo‘lib bormoqda. O‘zbekistonning iqlimi, ayniqsa yarim cho‘l va cho‘l mintaqalarda joylashgan hududlar (masalan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Buxoro, Navoiy) yashil yo‘laklarga alohida yondashuvni talab etadi. Ushbu hududlarda yashil infratuzilma shahar mikroiklimini yumshatish, changni ushlash, havoning namligini muvozanatlash, issiqlik orollarining oldini olishda nihoyatda muhim ahamiyatga ega [6].

O‘zbekiston hukumati tomonidan so‘nggi yillarda qabul qilingan “Yashil makon” loyihasi, 2023–2026-yillarga mo‘ljallangan ko‘chat ekish strategiyasi va mahalliy hokimliklarga yashil infratuzilmalarni rivojlantirish bo‘yicha berilgan topshiriqlar - bularning barchasi yashil yo‘laklar tizimiga yangi yondashuvlarni joriy qilish zaruratini ko‘rsatmoqda [7].

Shu tarzda, yashil yo‘laklar tizimi faqatgina ekologik barqarorlikni emas, balki shaharlar estetik qiyofasini, turizm salohiyatini, ijtimoiy bag‘rikenglik va sog‘lom turmush tarzini ham rivojlantirishga xizmat qiluvchi ko‘p funktsiyali infratuzilmadir.

Uni shahar bosh rejalari integratsiya qilish, ekologik va ijtimoiy komponentlarni uyg'unlashtirish orqali O'zbekistonda yashil, sog'lom va innovatsion shahar muhitini shakllantirish mumkin [8].

Xulosa

Xulosa qilib aytganda aholi zichligi ortib borayotgan va iqlim o'zgarishlari tobora kuchayib borayotgan bir sharoitda, yashil infratuzilmaning, ayniqsa, yashil yo'laklar tizimining tutgan o'rni yanada ortib bormoqda. Yevropa va Osiyo mamlakatlari tajribasi shuni ko'rsatadiki, yashil yo'laklar nafaqat ekologik vazifani bajaradi, balki ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy jihatdan ham katta ahamiyatga ega. Xuddi shunday, Janubiy Koreya va Xitoyda ham yashil yo'laklar orqali shahar markazlarida ekologik va ijtimoiy muvozanat tiklangan, bu esa fuqarolarning hayot sifati va ekologik ongiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

O'zbekiston uchun ham bu yondashuv nihoyatda dolzarb. Iqlim sharoiti qurg'oqchil bo'lgan mamlakatimizda yashil yo'laklar nafaqat estetik yoki rekreatsion vazifa bajaradi, balki shahar mikroiklimini tartibga solishda, chang va issiqlik orollarini kamaytirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, Nukus, Buxoro, Navoiy, Termiz kabi iqlimi og'ir va vegetatsiya mavsumi qisqa bo'lgan shaharlarda yashil yo'laklar orqali shamol yo'nalishlari bo'yicha ekologik ventilyatsiya tizimlarini shakllantirish mumkin.

Shu nuqtai nazardan, O'zbekistonda shahar bosh rejalari va landshaft loyihalarini ishlab chiqishda yashil yo'laklar tizimini integratsiyalash zarur. Bu tizim shahar ichida mavjud bo'lgan bog'lar, xiyobonlar, suv havzalari, tarixiy obidalar va boshqa muhim ob'ektlarni o'zaro bog'lab, ekologik uzluksizlikni yaratadi. Bunda xalqaro tajriba va mahalliy iqlim, relef, suv resurslari va madaniy qadriyatlar asosida moslashtirilgan yondashuv qo'llanilishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Aymatov A.A. (phd); Shakarova L.O., magistrant. Zamonaviy arxitektura turarjoylar kontsepsiyasi. me'morchilik va qurilish muammolari. Samarqand 2022, №4 (1-қисм)
2. Madaminov B. O'zbekiston hududida ekologik bog'lamlarning ahamiyati // Geografiya va tabiiy resurslar, 2020, №2.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 30.05.2025 yildagi PF-90-son <https://www.lex.uz/uz/docs/-7552003>
4. Forman R. T. T. Greenways: A Guide to Planning, Design, and Development. Island Press, 1996.
5. SenStadtUm (Berlin City Planning Dept.). Urban Green Space Strategy: Biotope Network Berlin, Berlin, 2015.
6. Gandy M. Concrete and Clay: Reworking Nature in New York City. MIT Press, 2003.
7. Wu J. Urban Ecology and Sustainability in China: The Chengdu Model // Landscape and Urban Planning, 2019.
8. European Environment Agency. Green infrastructure and territorial cohesion, EEA Report No 1/2011.

TRANSPORT HARAKATINI SHAHARGA KIRMASDAN AYLANMA YO'LLAR ORQALI TASHKIL ETISH VA TIRBANTLIKNI OLDINI OLISH YECHIMLARI (SAMARQAND SHAHRI MİSOLIDA)

Xudayberdiyev Ab'erqul

Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti,

texnika fanlari nomzodi, dotsent

Fayzullayev G'olib Zarifovich

Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti, PhD

Annotatsiya

Mazkur maqolada Samarqand shahri yirik tarixiy va turistik markaz bo'lib transport vositalari harakatini shaharga kiritmasdan, aylanma yo'llar orqali